



Namangan viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-iyul dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 193 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 16 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 177 tani tashkil qildi.


2026- yilning yanvar-iyul oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 20 323,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 121,1 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 193,7 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 95,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 15 097,4 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 120,5%), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 4 032, mlrd so'mni (o'sish sur'ati 142,0%) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 940 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 13 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 927 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026- yilning yanvar-iyul oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 13 603,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 10,8% ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 11 68,0 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 17,3 % ga to'g'ri keldi. Viloyatdagi jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 84,3 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar Yangiqo'rg'on (155,3%), Kosonsoy (137,8%) va To'raqo'rg'on (133,9 %).

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1-iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 338 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 11 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 327 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyul oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 18 162,0 mlrd so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 118,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 72,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.